



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI



## ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023-YIL  
YANVAR-SENTABR

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydag'i PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 15 412,3 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (111,5 %) o'sish sur'ati 109,3 % ni tashkil etdi.**


**Xizmatlar sohasi** – bu, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinnlarda 2022-yil ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan.

# Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (1-oktabr holatiga ko'ra)

**Xizmatlar sektori** murakkab tuzilmaga ega bo'lib, iste'molchilarga har xil turdag'i xizmatlar ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlardan iborat.

Ushbu korxona va tashkilotlarning faoliyat doirasi ancha keng bo'lib, ular mijozlarga turli xil tovarlar yetkazib beradi (savdo xizmatlari), ularning ishlashini ta'minlaydi (texnik xizmat ko'rsatish) yoki o'zлari xizmatlar ko'rsatadilar (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqalar).



**2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra**, Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni **29 895** birlikka yetdi. Xizmatlar sohasida **20 397** birligi jalb etilgan bo'lib, bu ularning umumiyligi sonining **68,2** foizini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** **2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra** xizmatlar sohasidagi mavjud korxona va tashkilotlarning ulushi **61,9** foizni yoki **27 317** birlikni tashkil etgan.

**2023-yil yanvar-sentabr** oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni **2 303** birlikni tashkil etib, jami yangi tashkil etilganlar umumiyligi sonining **67,0** foizi (**3 439** birlik) darajasida qayd etildi.

**Taqqoslash uchun:** **2022-yil yanvar-sentabr** oylarida ularning soni **2 465** birlikni tashkil etgan.




# Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Andijon viloyati 1)</b>	<b>15 412,3</b>	<b>100,0</b>	<b>109,3</b>
Andijon shahri	5 441,2	35,3	111,1
Xonobod shahri	382,1	2,5	110,3
tumanlar:			
Oltinko'l	658,3	4,3	109,9
Andijon	951,0	6,2	108,2
Baliqchi	854,6	5,5	109,2
Bo'ston	260,6	1,7	106,3
Buloqboshi	507,2	3,3	109,1
Jalaquduq	675,0	4,4	109,5
Izboskan	720,1	4,7	106,5
Ulug'nor	217,3	1,4	108,6
Qo'rg'ontep'a	766,2	5,0	108,7
Asaka	1 116,4	7,2	106,2
Marhamat	623,6	4,0	107,5
Shahrixon	840,5	5,4	108,5
Paxtaobod	615,2	4,0	109,3
Xo'jaobod	783,0	5,1	107,4

<sup>1)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr)



**2023-yil yanvar-sentabr** oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 601,5** ming so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,0** % ni tashkil etdi




Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati 1)	4 601,5	107,0
Andijon shahri	11 508,6	108,6
Xonobod shahri	8 435,2	108,1
tumanlar:		
Oltinko'l	3 461,0	107,7
Andijon	3 368,6	105,9
Baliqchi	4 012,3	107,0
Bo'ston	3 392,8	104,3
Buloqboshi	3 357,0	106,9
Jalaquduq	3 433,4	107,5
Izboskan	2 855,3	104,4
Ulug'nor	3 432,7	106,9
Qo'rg'ontep'a	3 366,4	106,8
Asaka	3 186,9	103,9
Marhamat	3 391,0	105,2
Shahrixon	2 627,5	106,0
Paxtaobod	2 987,8	107,0
Xo'jaobod	6 624,4	104,7

## Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (fermer va dehqon xo'jaliklari bundan mustasno)

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiyligi sonining (**24 559** birlik) **61,9** foizi yoki **15 200** birligi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatadi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 137** birlikni yoki ularning umumiyligi sonining (**3 272** birlik) **65,3** foizini tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik hajmi **9 962,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **65,6** foizni, shu jumladan, **14,1** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida bu ko'rsatkich **8 485,1** mlrd so'mni tashkil qilgan. 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,0** foizni tashkil etdi.



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-sentabr)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>15 412,3</b>	<b>100,0</b>	<b>109,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	756,8	4,9	122,0
Moliyaviy xizmatlar	3 328,6	21,6	115,1
Transport xizmatlari	3 026,6	19,6	102,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<b>2 944,0</b>	<b>19,1</b>	<b>103,2</b>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	292,5	1,9	106,7
Savdo xizmatlari	4 631,2	30,0	106,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	374,1	2,4	104,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	790,2	5,1	129,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	275,2	1,8	106,7
Ijara xizmatlari	288,2	1,9	98,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	338,6	2,2	105,0
Shaxsiy xizmatlar	752,7	4,9	101,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	142,4	0,9	103,7
Boshqa xizmatlar	415,2	2,8	118,4

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



**2022-yil yanvar-sentabr** oylariga nisbatan **2023-yilning** mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **698,7** mlrd. so‘mga oshib, **3 328,6** mlrd. so‘mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **21,6** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’ati **115,1 %** ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023-yil yanvar-sentabr)

**2023-yilning yanvar-sentabr oylarida** moliyaviy xizmatlar tarkibida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **85,1 %** ni tashkil etdi.

Sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

**85,1 %**

Sug‘urta bo‘yicha xizmatlar

**3,1 %**

Yordamchi moliyaviy faoliyat

**11,8 %**

**2023-yilning yanvar-sentabr oylarida** transport xizmatlari hajmi **3 026,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, **2022-yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi ning o‘sish sur’ati **102,7 %** ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi **19,6 %** ni tashkil etdi.



**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**2023-yilning 1-oktabr** holatiga ko‘ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **947** birlikni, yoki ular umumiy sonining **3,2 %** ni tashkil etdi. Ulardan **936** birlik (**98,8 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

**Transport  
xizmatlarining turlari  
bo‘yicha tarkibi**  
(2023-yil yanvar-sentabr)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **97,2 %**.

**2022-yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan **2023-yilning yanvar-sentabr** oylarida savdo xizmatlari hajmi **709,3** mlrd. so‘mga oshib, **4 631,2** mlrd. so‘mnini tashkil etdi.

**2022-yilning mos davriga** nisbatan ushbu xizmat turi bo‘yicha o‘sish sur’ati **106,8 %** ga yetdi.



■ Hajmi, mlrd. so‘mda      ● O’sish sur’ati

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**9 210 birlik**


1-oktabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan

**9 192 birlik**

1-oktabr holatiga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlari

**2023-yilning 1-oktabr** holatiga

ko‘ra xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsa-tayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida savdo faoliyati bilan band bo‘lganlarning ulushi **45,2 %** yoki **9 210** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8 foizi** (**9 192** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.





## Savdo xizmatlarining tarkibi

81,9 %

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar



9,9 %

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

8,2 %

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiylajmining deyarli to'rtadan uch qismini, ya'ni **81,9 %** ni tashkil etdi.





**2023-yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 756,8 mld. so‘mdan iborat bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 122,0 % ni tashkil etdi.**

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **4,9** foizni tashkil etdi.


**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

**2023-yilning 1-oktabr** holatiga ko‘ra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **424** birlikka yetdi, shundan **415** birligi (umumiy sonining **97,9** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (yanvar-sentabr)


2022-y.

2023-y.



## 2023-yil yanvar-sentabr

oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 790,2 mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **129,2 %** ni tashkil etdi.




**"Ta'lif" seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'lifni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lif, shuningdek, kattalar uchun ta'lif (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lif sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.



**Ta'lif sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

# Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-sentabr)




**2023-yil yanvar-sentabr** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **275,2** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **1,8 %**ini tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** – bu, sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023-yilning 1-oktabr** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **978** birlikni tashkil etdi, shundan **890** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil qildi.



**2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2023-yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **70,6** mlrd. so'mga oshib, **292,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.**



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023-yilning 1-oktabr** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1 235** birlikni tashkil etgan bolsa, ulardan **1 231** birligi (umumiyl sonining **99,7** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi  
(2023-yil yanvar-sentabr)**



# Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-sentabr)



**2023-yil yanvar-sentabr** oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **374,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,9 %** ni tashkil etgan.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023-yil yanvar-sentabr, mlrd. so'mda)

Andijon viloyati <sup>1)</sup>	374,1	Jalaquduq	17,7
Andijon sh.	106,8	Izboskan	22,4
Xonobod sh.	17,4	Ulug'nor	4,7
Oltinko'l	14,3	Qo'rg'ontep'a	18,3
Andijon	19,1	Asaka	37,1
Baliqchi	15,9	Marhamat	18,4
Bo'ston	8,8	Shahrixon	22,8
Buloqboshi	13,6	Paxtaobod	16,7
		Xo'jaobod	20,1

<sup>1)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2023-yilning yanvar-sentabr** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **142,4** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **0,9 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi (2023-yil yanvar-sentabr, mlrd.)

Andijon viloyati	142,4	Izboskan	6,0
Andijon sh.	46,7	Ulug'nor	2,8
Xonobod sh.	2,6	Qo'rg'ontepa	9,3
Oltinko'l	3,5	Asaka	10,9
Andijon	8,6	Marhamat	8,4
Baliqchi	4,7	Shahrixon	7,6
Bo'ston	2,0	Paxtaobod	11,0
Buloqboshi	4,3	Xo'jaobod	10,0
Jalaquduq	4,1		

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa muhandislik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **19,9** mlrd. so'mga oshib, **288,2** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

